

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH TAJRIBA SINOV ISHLARI SAMARADORLIGI

Joniyeva Tursunoy Boboxon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasidan foydalanish va bu borada mavjud muommolar, kamchiliklar, hamda yechilishi lozim bo'lgan masalalarga yechim sifatidagi mulohazalar haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Xalq pedagogikasi, axloq, tarbiya, milliy urf-odatlar, madaniyat, tamoyil, ijodkorlik, maktabgacha yosh.*

Axloqiy tarbiya tug'ilishdan boshlanadi, va kundalik munosabatlar jarayonida hayot davomida davom etadi. Bu atama deganda jamiyat "axloqiy" deb ataydigan axloqiy tamoyillar, sifatlar, shuningdek, xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan shaxsga ta'sirlar tizimini tushunamiz. Axloq tushunchasi xalq madaniyatiga, dinga va ma'lum bir davrga bog'liq (agar uni ma'lum bir davr ichida ko'rib chiqsak). Axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirishning asosidir. Axloqning birinchi tushunchasini chaqaloqqa uning onasi tabassum va ozgina qattiqqo'llik bilan nima yaxshi va nima yomonligini tushuntiradi. "Opangizning sochidan tortish, qo'pol so'z aytish yoki tilingizni ko'rsatish yomon, lekin mazali taom uchun minnatdorchilik bildirish, kimgadir salomlashish yoki yordam berish yaxshi" - bu misol va ularning yuzlablari bor. Axloqiy tarbiya elementlarini kundalik hayotning har bir daqiqasida kuzatish mumkin. Bola uchun axloqiy namuna har doim ota-ona bo'ladi, u nima bo'lishidan qat'i nazar. Shuning uchun mo'rt shaxsga to'g'ri o'rnak berish juda

muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasidan foydalanish juda yaxshi samara beradi.

Xalq pedagogikasi xalqimizning qaxramonona o'tmishi, milliy qadriyatlari, tarixi, urfodatlari, ta'lim-tarbiyadagi ilg'or g'oya va tajribalarini o'zida aks ettiradi. Ana shu bebaho merosni o'rganish va undan o'quv tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak.

Xalq og'zaki ijodining o'lm as namunalari xalqimizning ma'lum davrdagi turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati. xalqimiz qalbidagi orzu-umidlari, g'am - tashvishlari. armon, quvonchlarini ifodalaydi. shu bilan birga har bir davrga hamnafas bo'lib yashaydi. Xalq tomonidan yaratilib. og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi yoki folklor (ingl. "folk"- xalq, "lore"- donolik, ya'ni xalq donoligi. donishmandligi) deb yuritiladi. Xalq og'zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo'shiqlar, maqol, matal, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alia, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqlar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va b. Xalq og'zaki ijodining yuqorida sanab o'tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, olijanoblik. qadr. vafo, sadoqat. yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalilik, insonparvarlik, kabi xislatlar ulug'lanadi, yomonlik, bevafoqlik, baxillik. xasislik, qo'rqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushom adgo'ylik, andishasizlik, ochko'zlik, ma'suliyatsizlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Shu o'rinda og'zaki ijod namunalari odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasida o'ta hayotiy. xalqchil va ibratlilikini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlashimiz joiz. Xalqimiz pedagogikasi juda boy manbalarga egadir lekin axloqiy tarbiyalashda doim ham uning namunalariidan foydalanavermaymiz. Oilada ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham kam holatlarda xalq pedagogikasining manbalariga murojaat qilishadi. Interet saytlaridan chiqqan, manbasi to'liq ko'rsatilmagan turli asarlarni topib ishlatish tarbiyachilarda va ota onalarga odat bo'lib

qolmoqda. Bu holatlarni oldini olish maqsadida Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘llash mumkin bo‘lgan xalq pedagogikasi durdonalari alohida kitob yoki qo‘llanma holiga keltirilishi lozim. Ana shundagina farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan har bir shaxs bemalol ikkilanmasdan o‘sha qo‘llanmalardan foydalanisha oladilar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda muntazam ravishda xalq pedagogikasining na‘munalaridan keng tarzda foydalanish lozim. Chunki, xalq pedagogikasida xalqimizga xos bo‘lgan sharqona odob na‘munalari juda chiroyli tarzda bayon etilgan. Xalq pedagogikasi durdonalari bo‘lgan xalq ertaklari, xalq maqollari, xalq dostonlarining aynan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos bo‘lgan joylari tanlab olinsa yanada yaxshi bo‘ladi. Negaki, axloqiy tarbiyalash ishlari ham aynan yosh davrlariga moslashtirib olib borilsagina yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun har bir pedagog-tarbiyachi uchun moslashtirilgan qo‘llanmalar ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘proq joriy etilishi lozim deb o‘ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini” 2020-y*
- 2. Kayumova N.M., Ro‘ziyeva M.M. “Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma‘naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o‘rni “Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning roli” mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari 102-104-b*
- 3. Mutalipova M.J “Xalq pedagogikasi” Toshkent-2015*